



O'zbek an'anaviy nay cholg'usi tarixi va ijrochilik an'analari

Qaxxarov Toxir Aliyevich

Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi

“An'anaviy ijrochilik” bo'limining oliy toifali o'qituvchi

Madaniyat va san'at ko'krak nishoni sohibi

Annotatsiya: Ushbu maqolada barkamol avlod tarbiyasida, ayniqsa, ijtimoiy hayotda, yoshlar tarbiyasida musiqaning o'rni va ahamiyatini to'g'ri tahlil qilib, musiqaning ta'sirchanlik kuchiga aniq baho berish, ravshan uslubiy rejalar asosida ish ko'rishni taqozo qilmoqda. Texnikaviy rivoj bosimida jadallab borayotgan va o'z ta'sirini o'tkazayotgan musiqiy taraqqiyot oqimining yoshlarga ta'siri o'z kuchini ko'rsatmoqda. Shu sababli asrlar bo'yi ota-bobolarimizdan bizgacha etib kelgan musiqiy madaniyatimizni asragan holda, ijrochilik nuqtai nazardan tahlil qilib, uning ilmiy izlanishlar asosida rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Ushbu maqolada aynan shu maqsadga qaratilgan bo'lib, bunda o'zbek milliy cholg'u sozlarining eng qadimiysi bo'lmish nay sozi misolida, fikr yuritiladi, bundan tashqari sharq mutafakkirlarining cholg'u sozlarimiz to'g'risidagi fikr va mulohazalari, o'zbek an'anaviy nay cholg'usi tarixi va ijrochilik an'analari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Nay, san'at, soz, an'anaviy, sozanda, mutaffakir, nay nolasi, cholg'u, musiqa, o'zbek xalq kuyi.

O'zbek xalq cholg'ulari an'analarga boy bo'lib, uning kelib chiqishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Osiyo, xususan, O'zbekistonning hozirgi hududida arxeologik



qazish jarayonida topilgan musiqa asboblari va ijrochilarning tasviri tushirilgan juda ko'p moddiy-madaniy yodgorliklar bunga dalil bo'ladi. O'zbekistonda buyuk istiqlol deb atalmish ne'matni xalqimizga nasib etishi, uning mazmunida yangi ma'naviy yo'nalishlarning shakllanishi, ma'naviyatning bosh bo'g'ini bo'lmish san'atning barcha sohalariga, jumladan musiqa san'atiga samarali ta'sir etib, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini jadallashtirmoqda.

Tarixdan malumki dastlab urma sozlar, so'ngra daraxt va qamishlardan tayyorlangan puflab chalinadigan damli sozlar, vaqtlar o'tishi bilan torli, kamon vositasida ijro etiladigan sozlar yaratilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Qadimiy O'rta Osiyo madaniyati tarkibida bo'lgan o'zbek xalq cholg'u sozlari ko'p asrlik rivojlanish jarayonida o'z xususiyatlarini, tovush tuzilishini saqlab qoldi. Nay, surnay, chang, tanbur, dutor, g'ijjak, ud, qobuz sozlari bizgacha etib keldi.

Mavzuning yoritilish maqsadi. O'quvchini o'z kasbiga sidqidildan yondoshishi, ijrochilik mahorati sifatini va samaradorligini oshirish, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, nay sozi va uning tarixi, ijrochiligi xaqida tushunchalar hosil qilish.

Milliy sozlarimiz va ularning kelib chikish tarixi

Sharq mutafakkirlarining cholg'u sozlarimiz to'g'risidagi fikr va mulohazalari

O'zbek xalq musiqa merosining an'anaviy ijrochilik sohasiga murojaat etar ekanmiz, hozirda serqirra, serjilo hamda sayqal topgan pallaga etib kelganligini inkor etib bo'lmaydi. Musiqa san'ati insoniyat ma'naviyatining kalitidir. Musiqa orqali dunyoni anglash, tushunish doimo o'zining ijobatini topib kelgan. Shuning uchun hayotda musiqa bilan oshno bo'lgan, musiqaning sehrli sadolaridan baxramand bo'lgan insonlarga ezgu ishlarga qo'l urganlar. Zero musiqa ijodiyotining ilhomlantiruvchi kuchi hamdir. Shu bois bo'lsa kerak, o'tmishda yashab ijod etgan, olimu fuzalolar, shoiru adiblar, musiqa bilan oshno bo'lishga harakat qilganlar. Uning siru asrorlaridan chuqurroq boxabar bo'lish uchun uringanlar.



Alisher Navoiy ta’biri bilan aytganda «Shodlik oshiruvchi xonanda, g’amni tarqatuvchi sozanda. Bularning har ikkisi hissiyotga berilgan kishilar va ahli dardlar jon fido qiladilar.

XVIII asrda yashab ijod etgan tasavvuf ilmining yo‘lboshchilaridan biri Jaloliddin Rumiy hazratlarining o‘n etti ming misradan iborat «Masnaviy»sida: «Tingla nay, andoq hikoyatlar qilur» deb ko‘hna sozlardan nay cholg‘usiga alohida ta’rif berilgan. Musiqiy sozlarni ilmiy asoslab berish va ularning ovoz registrlariga alohida ahamiyat bergan holda tahlil qilish borasida qadimdan musiqashunos olimlarimiz o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganlar. Mashxur sozanda va hofiz, bir necha musiqiy asarlar yaratuvchisi Borbad Marvaziy, musiqashunos Xo‘ja Abdulqodir Marog‘iy, Abu Ali ibn Sino, Qutbiddin ash-Sheroziy, Darvesh ali Changiy, Xo‘ja Najmiddin Kavkabiy, Abduraxmon Jomiy singari bobokalonlarimiz musiqa ijrochiligini ilmiy asoslash bilan birga o‘zlari ham sozanda sifatida mashxur bo‘lganlar va musiqa ilmida ulkan ma’naviy me’ros qoldirganlar, sozlar ixtiro qilganlar.

O‘tmish ustozlarimiz barcha sozlar qatorida nay soziga ham alohida e’tibor bilan qaraganlar.

O‘rta Osiyoda yashagan mashhur olim Al-Farobiyning musiqa haqidagi risolasida «cholg‘u musiqa ashulaga jo‘r bo‘ladi yoki ovozga taqlid qiladi, uni boyitadi hamda ashulani boshlang‘ich musiqasini va uning oralaridagi cholg‘u qismini hosil qiladi. Bu esa ashulachiga dam beradi. Ayni vaqtda ular ashulachining ovozi etmaydigan joyini bo‘rttirib ashula jo‘rligini boyitadi» deyiladi. «Inson ovoziga yaqin tovush chiqaradigan cholg‘u asboblardan damli asboblardir; ular ovozga juda yaxshi taqlid qiladilar. Rabab va sumay ovozga ayniqsa yaxshi taqlid qila oladi. Al-Farobiy «rabab» deganda g‘idjak, «sumay» deganda nay cholg‘ularini nazarda tutgan deyiladi.

Nay sozi va uning tarixi. Nay — o‘zbek milliy cholg‘ularidan biri bo‘lib, qadim zamonlardan xalq orasida keng ommalashgan. Arxeologik qazilmalar natijasida Samarqandning Mo‘min obod qishlog‘idan topilgan, bundan 3300 yil oldin suyakdan



ishlangan to'rtta teshikli nayni e'tiborga olsak, ota bobolarimizning juda qadimdan bu cholg'uga oshno ekanliklari ayon bo'ladi. Ayritom shaxristoni qazilmasidan topilgan sozandalarni nay chalib turgan toshga o'yilgan sur'atlari asosida fikr yuritadigan bo'lsak, sozandalik san'ati, aynan nay sozini qadimiyligiga ishonch hosil qilamiz. Qadimiy O'rta Osiyo madaniyati tarkibida bo'lgan, o'zbek xalq cholg'u sozlari, ko'p asrlik rivojlanish jarayonida o'z xususiyatlarini, tovush tuzilishini saqlab qoldi. Nay, qo'shnay, chang, tanbur, dutor, g'ijjak, ud, qobuz sozlari bizgacha etib keldi. O'tmish ustozlarimiz barcha sozlar qatorida nay soziga ham alohida e'tibor bilan qaraganlar.

Hususan, 9-10 asrlarda yashab ijod qilgan Sharqning buyuk allomasi Abu Nasr Farobiy o'zining "Katta musiqiy kitobi" da ta'riflangan nay cholg'usi zamonaviy naydan deyarli farq qilmaydi.

Nay cholg'usida ettita maxsus teshikchalar mavjud. Ulardan bittasi cholg'uning yuqori tomonida havo yuborish, ya'ni puflash uchun mo'ljallangan. Oltitasi quyi tomonida cholg'uning pardalari xisoblanib, barmoqlar yordamida muayyan tovushlarga va ettitadan tashqi oraliq, nimchorak pardalarni tarannum etishga ega bo'linadi. Odatda, naylar 32-37 sm uzunlikda bo'lib, 2,5 oktava oralig'idagi tovushga egadir.

Nay o'zbek cholg'ularidan biri bo'lib, qadimiy zamonlardan xalq orasida keng ommalashgan. Tarixiy obidalar va o'tmish musiqa risolalarida yozilishicha, nay cholg'usi ilk yaratilgan nusxasida saqlangan.

Azaldan sozandalar turli jismlardan tayyorlangan naylardan foydalanilgan. Odatga ko'ra, nay sozi daraxtdan, qamishdan va misdan yasalgan. Abdurauf Fitrat o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida nay qamish ma'nosidagi forsiycha so'zdir. Bizda birinj (bronza) yoki baqir(mis) dan yasaladi deb izohlaganlar. Shu bilan birga oq metal (alyumin) dan yasalgan naylarni ham uchratishimiz mumkin. Amaliyotda keng qo'llangan va hozirgi davrda, an'anaviy ijrochilik amaliyotida ko'proq g'arovdan yasalgan naylar qo'llaniladi.



Nay sozida ko‘proq Arabiston, Turkiya, eron, Pokiston, Hindiston, Qashqar umuman sharq davlatlari kuylarini ijro etish mumkin. Sharq sozandalari, honandalari orasida shunday bir fazilat bor ekanki, ulardagi ijro uslubi bir-biridan farqli bo‘lgani bilan, ijro etish omillari bilan bir xil. Faqat har bir xalq o‘zining an‘anasidan, imkoniyati va musiqasining mohiyatidan kelib chiqib, talqin etadi.

Nay o‘ziga xos soz bo‘lib, tovush xosil qilinishi bo‘yicha “xushtaksimon” cholg‘ular oilasiga mansubdir. Chunki ichkaridan tiqilib kelgan kuchli nafas to‘lqini nay teshigini o‘tkir qirrasiga uriladi va havoni aylanma xarakati natijasida kesiladi. Nay ichiga qamalgan havoni xarakatga keltiradi va tovush xosil bo‘ladi. Nayning ijro jarayoni murakkab hisoblanadi. Uning mukammal tarannumiga erishish esa bir qator tabiiy va malakaviy jihatlarni uyg‘unlikdagi harakatlarni taqazo etadi. Xususan, 4 ta ijrochilik vositasining birgalikdagi harakati cholg‘u ijrochiligida eng muhim omil xisoblanadi. Bular:

1. Kuyni his qilish, idrok etish va musiqiy qobiliyat.
2. Nafasni ravon va to‘g‘ri taqsimlash.
3. Barmoqlarni mayin va mahorat bilan yurgizish.
4. Ustozlarni ijro uslubiga taqlid qilish

An‘anaviy ijrochilikda nay sozi va uning an‘analari

An‘anaviy nay ijrochiligi. Nay ijrochiligi tarixiga nazar solar ekanmiz, Abduqodir Ismoilov, Ayub Qodirov, Saidjon Kalonov, Usmon qori kabi benazir naychi sozandalar asosan yakka ijrochi sifatida el orasida mashxur bo‘lganliklarini guvohi bo‘lamiz. XX asrning 20-yillaridan boshlab nay sozandalar ansambli tarkibida munosib o‘rinni topdi, ommalashdi va bu cholg‘uda mohir sozandalar etishib chiqdilar. YU.Rajabiy, R.Hamdamiy, M.Muxamedov, D.Soatqulov, A.Qodirov, M.Toirov, X.Jo‘raev, A.Sobirov, A.Abdurashidovlar shular jumlasidandir. Nay sozining tarixiy shakllanishi, mashxur ustoz naychi ijrochilar nomlari bilan bog‘liq bo‘lib, har davrning ulug‘ ustoz naychi sozandalari o‘zlarining betakror ijrolari bilan, nay cholg‘u sozining bugungi mukammallashuviga olib



kelganlar. Musiqa durdonalarini ijro etib, shu soz uchun xos bo'lgan asarlar yaratib, yangi shogirdlar tarbiyalashdagi xizmatlari beqiyos. Nay azaldan xalqimizning sevimli cholg'ularidan hisoblangan. Keyingi yillarda o'zbek madaniyati va san'atida qator ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Milliy cholg'ular rekonstruksiya qilindi, sozandalar nota matniga asoslanib ijro eta boshladilar. Buning natijasida milliy cholg'u ijrochilari dunyo musiqa madaniyati bilan yaqindan tanishishga va bu musiqani bevosita ijro etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Nafaqat respublikamizda, balki horijda ham o'zlarining ijrolari bilan tanilgan sozandalar etishib chiqdilar. Jumladan nay cholg'usida ham mohir sozandalarimiz respublikamiz va chet ellarda o'z mahoratlarini namoyish etib kelmoqdalar. Nay cholg'usida ta'lim berish barcha musiqa o'quv yurtlarida, jumladan musiqa maktablari, ixtisoslashtirilgan san'at maktablarida ham yo'lga qo'yilgan.

O'zbek xalq an'anaviy musiqa ijrochiligida oldin tovushlarni turli xildagi bezak va sayqallar bilan boyitib ijro etish muhim mezonlardan hisoblanadi. Zero, tovushlarni sayqal bilan ijro etish har bir sharq xalqlari ijrochiligiga xos an'anadir. Shu omil asarning kuy ohang mazmunini boyitib, ohang ko'lamini kengaytiradi. Xalqlarning o'ziga xos ruhiyatini ifodalab beradi. Chunki, musiqiy bezak, har bir xalqning milliy an'analariga asoslanadi.

Milliy musiqa ijrochiligida qo'llaniladigan bezaklarning maxsus atamalar bilan nomlanishi ko'pchilik sozanda va xonandalarga ma'lum. Masalan: "Qochirim", "To'lqinlashtirish", "Nolish", "Molish", "Kashish", "O'rama", "Sapil" va boshqalar. Ularning ayrimlari tovushning sifatini ham belgilaydi.

O'zbek an'anaviy musiqasida qo'llaniladigan bezaklar uch guruhga bo'linadi. Oddiy, qo'sh va uchtalik bezaklar.

1. Oddiy- bir qo'shimcha tovush bilan ijro etiladigan bezak. Musiqa amaliyotida "forshlag" deb yuritiladi.
2. Qo'sh – ikki qo'shimcha tovushlar yordamida hosil qilinadigan bezak.
3. Uchtalik – chat qo'shimcha tovushdan tashkil topgan bezak.



Ijroda bu bezaklar yangrashi lozim bo‘lgan tovushlar hisobida bo‘ladi.

Titratma – ikki yonma – yon tovush tebranmasida hosil qilinadi. U eng qisqa va eng uzun tebranishdan iborat bo‘lishi mumkin. Bu uslub lab yordamida va qorinda olinadigan nafas orqali ijro etiladi.

Sayqal (Mordent) – bidratmadan tamomila farq qiladi. Agar bidratma uzun va qisqa notalarga (nota cho‘zishiga qarab) bevosita taalluqli bo‘lsa, sayqal uch yoki besh tovushdan tashkil topadi. Uni ijro etishda dastlabki asosiy notadan uni cho‘zishini yarmigacha qisqartiriladi.

An‘anaviy nay ijrochiligida sayqalning yuqorida keltirilgan barcha namunalariga asosan til urish bilan erishiladi. Bu asosiy tovushga to‘g‘ri keladi. Nota yozuvi ifodasida mordentlarning (bittalik, qo‘shaloq, chizilgan) hamma belgilari ustiga qo‘shuv belgisi qo‘yiladi.

To‘lqinlatish (vibrato) – deyarli barcha xalq chog‘ulari va ashula ijrochiligi uchun xos bezakdir. Nay ijrosida jag‘, iyak va qorinning titratish yo‘li bilan hosil qilinadi. Amaliyotda ushbu bezakdan butun, yarimtalik, choraktalik va nimchorak notalarni ijro etganda foydalanish.

Nolish – yarim tongacha bo‘lgan o‘ziga xos yirik bidratma. Nay chalganda usul chap, o‘ng barmoqlarni bir tekisda ko‘ndalangiga harakatlantirish hisobiga erishiladi. Bu bezak belgisi orqali ifodalanadi.

Molish – barmoqni bir tovushdan ikkinchi tovushga ohangdor ohista sirg‘altirish usulidir. U “ Glissando “ ga yaqin bo‘lib, badiiy to‘lqinlatishning muhim vositalaridan hisoblanadi. Ijroda cho‘zimiga qarab molish turlanadi. Ya‘ni, tovush chiqarishning bir necha turlari bilan xarakterlanadi.



Kashish – yarim ton doirasida amalga oshiriladigan bezak usuli. Bunda barmoqlar nayda ko‘ndalang turgani holda, barmoqni yuqoriga va pastga tortgandek harakat qiladi.

Kashishning barcha ko‘rinishi og‘zaki an‘anadagi mumtoz kuylarda va ayniqsa, maqom ijrochiligida keng qo‘llaniladi.

Sayratish- an‘anaviy ijrochilikda tez-tez qo‘llanilib turadigan bezaklardan biri susaytirishdir. Ushbu nafis bezakning ijrosi bulbul churillab sayrashiga o‘xshagani uchun, uni susaytirish deb nomlashni lozim ko‘rildi. Bu sayroqi bezakning mohiyati shuki, ikki yonma yon asosiy va ustki yordamchi tovushlarni tezkorlik bilan bir me‘yorda navbatma navbat ijro etishdir.

O‘rama – ushbu ijro bezagi an‘anaviy qo‘shiqchilikda ham ishlatiladi. O‘ramada tovush balandligi legato yordamida bir pardadan ikkinchi pardaga sirg‘alib o‘tish yo‘li bilan vujudga keladi. O‘rama bezagi ko‘rsatkich chiziqlar bilan ifodalanadi.

Nay sozida ijrochilik an‘analari va uslublari. An‘anaviy ijrochilikda musiqiy asarning tasirchanligi inson ruhiyatiga xush kayfiyat baxsh etish, ma‘naviy ozuqa berish, kuyning milliy bezaklari bilan to‘laqonli ifoda etilishidir. Buning uchun sozanda yuksak musiqiy did va mahoratga ega bo‘lishi lozim.

O‘zbekistonda hizmat ko‘rsatgan artist, mohir sozanda va bastakor, o‘zbek musiqa san‘at ijrochiligida o‘ziga xos, betakror nay ijro uslubini yaratgan, zabardast san‘atkor Mahmudjon Muhammedov o‘zbek an‘anaviy musiqa tarixidagi yorqin namoyondalaridan biridir.

Darhaqiqat nay ijrochiligi tarixiga nazar solar ekanmiz, A.Qodirov, A. Ismoilov, S. Kalonov, Usmon qori kabi Benazir naychi sozandalarni asosan yakka ijrochi sifatida el orasida mashhur bo‘lganliklarining guvohi bo‘lamiz. Ularning har biri ijrochilikda erishgan uslubi, ijro etgan asarlarini xalqimiz yaxshi biladi. Mening nazarimda bu uslublari xozirgi davrda ham biz yoshlar uchun ibratdir.



Ustoz Mahmudjon Muhammedov nay sozini shunday ta'riflagan edilar: - "Nay shunaqangi injiq sozki, uning sirlarini bilib, yurakdan chiqarib, o'z xissini qo'shib, o'rganib, yaxshi ijro etmasa, mohir naychi bo'la olmaydi". Har bir nay ijrochilarining o'ziga xos uslublari bo'lgan. Masalan, Abduqodir Ismoilov ijro uslubining boshqa naychilardan farq qiluvchi tomoni, yakka nayda kata ashula- patnisaki yovvoyi uslublarga xos yo'l bilan ijro etgan. Xususan S.Kalonov, D.Soatqulov, Usmon qori shular jumlasidandir. Keyinchalik doira va ansambl jo'rligida M., Muhammedov, Q.Rahmatovlar, Mahmudjon Muhammedov ijrochilik faoliyati davomida musiqiy me'rosimizda mavjud ko'plab asarlarni o'z ijro uslubida talqin etib, ularga yangidan hayot bag'ishladi. Bunga Dugoh maqomidan "Chorgoh", "Dugoh Husayni", "Tamanno" (M.Murtazoev), "Bahor tongi" (M.Muhammedov), "Nargiziston" (M.Muhammedov), "Bir kelsin" (M.Muhammedov). Sharq kuylaridan "Shohistaiman", "Afg'oncha", "Jononbiyo" (eroncha), "Yor, yor omon" (turkcha), "Madinati Al-Habibatu" (iroqcha) kabi durdona musiqa asarlari misol bo'la oladi. Ustozning bir qator shogirdlari respublikamizdagi nufuzli badiiy jamoalarda, maqom ansambllarida, oliy va o'rta maxsus musiqa (san'at) kollejlari va akademik litseylarida muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar.

Xulosa kilib aytganda, o'zbek xalq musiqa merosi boy va rang barang ijrochilik an'analarga egadir. Musiqiy an'analarda cholg'u ijrochilik uslublari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, o'zbek milliy musiqa cholg'ulari har tomonlama mukammal va murakkabdir. Shu nuqtai nazardan nay cholg'usi ham o'ziga xos siru-sinoatlari bilan birga o'zgacha tarovati bilan ajralib turadi. Zotan, nay o'zbek xalqining milliy, qadimiy va eng sevimli sozlaridan biridir. Uning sersayqal va jozibali go'zal ijrosiga erishish o'quvchidan lozim bo'lgan amallar va bilimli bo'lishni taqozo etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar va saytlar ro‘yhati:**

1. M.Toirov Nay darsligi 1973-yil Toshkent
2. T.Kaxxorov “Nay navosi“ 2008-yil Toshkent
3. X.Oripov “Nay nolasini“ 2013-yil Toshkent
4. YU.Rajabiy O‘zbek xalq musiqasi 1-9 kitoblar 1959-yil Toshkent
5. Q.Umarov “An’anaviy g‘ijjak ijrochiligi” 2014 yil
6. WWW.ZIYONET.UZ
7. WWW.KONSERVATORIYA.UZ